

9-mavzu: [n] tovushi. Nn harfi

Dars maqsadi:

- [n] tovushining talaffuzi va Nn harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [n] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so'zlardan [n] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: so'zni o'qish, [n] tovushi

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Izquvar mashqi: O'qituvchi ota so'zini aytadi. O'quvchilar shu so'zda nechta bo'g'in va nechta tovush bor ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi.

- Bugun siz bilan "Izquvar" mashqini o'tkazamiz. Ota so'zida nechta bo'g'in va shu so'zda nechta tovush bor ekanligini aniqlang. Bo'g'inlar soniga mos ko'k kartochkalarıngizni, tovushlar soniga mos qizil kartochkalarıngizni oling.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'quvchilar guruhda ishlaydilar.

O'qituvchi doskaga ota va ona rasmini qo'yadi. O'quvchilardan har ikkala rasmni ifodalovchi so'zni bo'g'inga bo'lib, tovushlarini alohida -alohida talaffuz qilishlarini aytadi. Talaffuz qilingan tovushlar orasidan hali o'tilmagan tovushni aniqlashni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmni ifodalovchi so'zlarnı ayting?*
- *Birinchi so'z necha bo'g'indan iborat?*

- *Ikkinchi soʻz necha boʻgʻindan iborat?*
- *Birinchi soʻz qanday tovushlardan iborat?*
- *Ikkinchi soʻz-chi?*
- *Qaysi tovushni oʻrganmaganmiz?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

Oʻqituvchi [n] tovushini qanday hosil boʻlishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda toʻsiqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga boʻgʻin hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

Oʻqituvchi uchun eslatma:

N tovushini talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda boʻladi, oldingi tishlar koʻrinib turadi, yuqorigi va pastki tishlar bir-biriga yaqinlashadi-yu, lekin birikkan boʻlmaydi, *N* tovushini talaffuz etganda havo ogʻizga kelgach, til yuqori tishlarga tegadi va *n* tovushi hosil boʻladi. Ana shu til va tish tegib turgan joy toʻsiq boʻladi. Shuning uchun *N* tovushi toʻsiqqa uchraydi, qisqa aytiladi, *N* tovushini aytilganda ovoz bilan shovqin ham eshitiladi.

Darslikdan Nn harfining bosma koʻrinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan sheʼr oʻqib beriladi va muhokama qilinadi.

- *She'r nima haqida?*
- *Unda Nn harfi qanday hosil qilindi?*
- *Sanoq cho'plaringiz bilan she'rda aytilganidek qilib ko'ring-chi. Nima hosil bo'ldi?*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Unda avval [o] tovushi cho'ziq aytilib, so'ng [na] bo'g'inini qo'shib aytiladi. Hosil bo'lgan so'z – **ona** so'zi o'qiladi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)


Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Tovushni o'rnini top mashqi bajariladi.

Ko'rsatkich yo'nalishlari bo'ylab so'zlarni o'qing mashqi bajariladi.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. *Nn harfi ko'k rangga bo'yaladi.*
2. *Ninachi va nilufar rasmlari bo'yaladi. Bu so'zlarning chizmasidan n tovushining o'рни aniqlanadi va katak bo'yaladi.*
3. *Berilgan namunadan bosma Nn harfining*




*bosh va kichik
ko'rinishini
avval nuqtalar*

ustidan so'ng mustaqil yoziladi.

4. *Rasmlarni ifodalovchi so'zlar necha bo'g'indan iborat bo'lsa, shuncha yulduzcha bo'yaladi. Masalan: nok so'zi bir bo'g'inli so'z bo'lgani uchun bitta yulduzcha bo'yaladi.*

5. *Shakllar orasida yashiringan harflar topiladi va bo'yaladi.*

Darsga yakun yasash:



- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

10-mavzu: [n] tovushi. Nn harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [n] tovushining talaffuzi va Nn harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [n] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: gapni o'qish, boshqotirma, [n] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar, kesma harflar, Yurtimizdagi non turlari tasviri.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim chaqqon mashqi: O'qituvchi doskaga kesma harflar yordamida o harfini va uni atrofiga na, ta, no, to, at, ot bo'g'inlar yozilgan kartochkalarni qo'yadi. O'quvchilardan bo'g'inlarni o'qib o harfiga qo'shib o'qiganda so'z hosil qilish mumkin bo'lgan bo'g'inlarni tanlab olishni aytadi. O'quvchilar o'tirgan joylarida avval o'qiydilar. Kim topsa o'rnidan turib shu bo'g'inni qo'liga oladi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida barcha o'tgangan harflari bilan so'z hosil qilishni so'raydi.